

HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Urayimova Shohsanamxon

Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi

(huquq ta'limi) magistri

Annontatsiya: Ushbu maqolada huquqiy madaniyat va huquqiy savodxonlik shakillantirishning ahamiyati haqida fikr va mulohazalar bayon etilgan. Bundan tashqari biz globallashuv asri deymizmi yoki texnika va texnologiyalar asri deymizmi bu vaziyatda inson uchun huquq va erkinliklarini bilishlik va anglashlik, turli hil ko'ngilsiz holatlarni oldini oladi va davlat ham bunday fuqarolar bilan o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi.

Kalit so'zlar: Huquqiy savodxonlik, huquqiy madaniyat, fuqarolik jamiyat, sivilizatsiya, qonun ustuvorligi, komil inson, diniy bag'rikenlik, axloq, norma, ma'naviyat, OAV.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan jamiyat uchun qonunlar va tartib qoidalar nihoyatda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi, sababi rivojlanayotgan har qanday jamiyat uchun aholining barcha toifasining huquq va erkinliklarini ta'minlash muhimdir. Ayni paytda shuni ham unutmaslik lozimki bir insonning huquq va erkinliklarini poymol qilgan holatda boshqa bir insonning huquq va erkinliklarini ta'minlashning iloji yo'q. Bu bizning Konstitutsiyamizda ham alohida moddalar bilan mustaxkamlangan, unda "Fuqarolar o'z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning davlat va jamiyatning huquq va erkinliklarini poymol qilmasliklari shart" O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 20 modda. Huquqiy davlat qurishni oldiga maqsad qilib qo'ygan har qanday jamiyat uchun manashu muammo asosiy masala bo'lib oldinga chiqadi. Bu muammoning oldini olish uchun birinchi bo'lib davlat uchun adolatli qonunlarni qabul qilish lozim bo'ladi. Adolatli qonunlar bor. Jamiyatning har qanday bo'g'inidagi muammolarni hal qilish uchun nizom va qoidalar mavjud, ammo xalq bu qonunlardan behabar ya'ni xalqning o'zi bu qonunlarning mazmunini bilmaydi, bunday vaziyatda ham huquq ustuvorligini ta'minlash oddiy bir qog'ozdagi gap bo'lib qoladi holos. Qonunlar qachon mutloq kuch sifatida qo'llaniladi qachonki ular haqiyqiy adolat bilan qabul qilinsa va manashu qonunlarning mazmunidan halqning o'zi habardor bo'lsa va bunga vijdonan amal qilsa.

Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarga nazar tashlaydigan bo'lsak biz manashu rivojlanish fuqarolarning huquq va erkinliklarini bilishi va unga og'ishmay amal qilishi, burchlarini ham bajarishi orqali bo'layotganligini anglab yetamiz. Yuqorida aytganimizdek qachon qonun haqiyqiy kuchga aylanadi qachonki fuqarolar manashu

qonunlarni bilsa va unga amal qilsa va talab qilsagina haqiyqiy kuch bo'ladi. Bugun O'zbekiston ham fuqarolik jamiyati qurish sari olg'a qadam tashlamoqda, buni amalga oshirish uchun avvalo qonun ustuvorligini ta'minlash juda ham muhimdir. Shunday ekan qonunlarning tarixiga nazar tashlashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Sodda qilib aytganda har bir sivilizatsiyaga erishgan mamlakatlarda me'yoriy-huquqiy aktlar huquqning yetakchi manbasi hisoblanib, asosiy ijtimoiy munosabatlar ana shu manbaa asosida muvofiqlashtiriladi. Me'yoriy huquqiy aktlarning asosiy turlaridan biri – bu qonundir. Qonunlarga huquq manbasi sifatida hattoki qadimgi davlatda ham amal qilingan. Misol sifatida Xamurapi qonunlari va boshqa qator huquqiy yodgorliklar kundalik hayotda juda keng qo'llanilgan.

Bugungi kunda yangi axborot texnologiyalarini keng ko'lamma joriy etmay turib, ta'lim tizimini takomillashtirib bo'lmaydi. Hozirgi zamon mutaxassis qaysi sohada ishlamasin, har qaysi jabhada huquqiy savodxonlik zarur bo'ladi.

Shu o'rinda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish borasida ham shunday desak bo'ladi. Fuqarolarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishda ijtimoiy tarmoqlar ham hozirgi zamonda asosiy manbaa sifatida qaraladi sababi hozir barcha insonlar uyali telefoni va boshqa turdag'i texnologiyalardan foydanangan holatda ijrimoiy tarmoqlarni kuzatib boradi. Bu esa huquqiy madaniyat va savodxonlikni oshirishda texnologiyalardan foydalanish dolzarb ekanligini anglatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishda ayniqsa halqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilinayotgan qonunlar ham katta ahamiyatga ega shu o'rinda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Insonning qadr qimmati, uning huquqlari, ayniqsa, rivojlanish huquqini hurmat qilish, imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish g'oyasi – barcha barqaror rivojlanish maqsadlarini o'zaro bog'lab turuvchi asosiy halqa hisoblanib, ularning uyg'unligini ta'minlashga bir birini to'ldirishi, mustaxkamlashga hizmat qiladi." - degan so'zlarini o'zi ham butun xalqni huquqiy savodxonli qilmay turib davlatning barqaror rivojlanishiga erishib bo'lmasligini anglatadi. Hozirgi vaziyat judayam tahlikali global muammolar tobora ko'payib davlatlar iqtisodiyoti va insonlar kelajagi uchun turli hildagi tahdidlarning soni ortib borayotgan vaziyatimizda huquq ustuvorligi fuqarolarning huquq va burchlarini bilishligi va unga amal qilishligi yanada dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish joyizki davlatlarni rivojlantirish uchun huquqiy ong va huquqiy savodxonlikni oshirish dolzarb masala bo'lsa, buning o'choqlari sifatida biz bog'cha, maktab, professional ta'lim va oliy ta'limlarni olishimiz mumkun. Chunki o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash davlat uchun ham manfaatli ham davlat oldiga qo'yilgan maqsad hisoblanadi. Bu ko'rsatkich albatta davlat aholisini butun bir qismini tashkil qilmasada lekin salmoqli qismini tashkil qiladi. Bundan tashqari huquqiy ong yoki qonun nomi ostida telekanal va telegram kanallar tashkil etishlik ham manashu yo'lda yaxshi natija beradi albatta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston" Toshkent-2023.S
2. "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida PF-158-sod 11.09.2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Qonuni. /O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, №1.2017.
4. Shavkat Mirziyoyev "Hozirgi zamon va yangi O'zbekiston" Toshkent 2024.
5. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" Toshkent 2023.
6. A. Utamuradov, M. Qirg'izboyev, T. Xojiyev "Fuqarolik Jamiyati" Toshkent-2018.
7. S. Otamuratov, J. Ramatov, S. Xusanov "Ma'naviyat asoslari".
8. "Huquqiy madaniyat-taraqqiyot garovi" maqolalar to'plami Andijon-2016.
9. Sh.X.Yo'lchiyev, S.S.Mamasodiqova "Ta'linda axborot texnologiyalari".
10. O.T. Husanov "Konstitutsiyaviy huquq Toshkent-2024.
11. A.V.Umarov "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati Andijon-2025.
12. Gulbahor Yuldasheva "Ta'linda axborot texnologiyalari" Toshkent "Mehr-nuri nashriyoti" 2024.
13. Minhojiddin Mirzo "Uyg'onish ma'rifati" Toshkent "Ma'naviyat" 2022.